



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



AMIR TEMUR MEROSI: TEMURIYLAR DAVRI VA UNING JAHON TARIXIDAGI O'RNI.

THE LEGACY OF AMIR TIMUR: THE TIMURID ERA AND ITS PLACE IN WORLD HISTORY.

НАСЛЕДИЕ АМИРА ТЕМУРА: ЭПОХА ТИМУРИДОВ И ЕЁ МЕСТО В МИРОВОЙ ИСТОРИИ.

Ahmadjanova Umidaxon Tohirjon qizi

Namangan Davlat Universiteti, Tarix yo'nalish talabasi

E-mail: ahmadjanovaumida2006@gmail.com

+998994819005

Ilmiy rahbar: Mahmudov Mansurjon

UBS univrsiteti, Tarix kafedrası, dotsent .

Annotatsiya: Ushbu maqola Amir Temur va Temuriylar davrining jahon tarixidagi o'rni hamda merosini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqot davomida Temuriylar siyosiy va harbiy faoliyati, madaniyat va ilm-fan sohasidagi yutuqlari, shuningdek, davlat boshqaruvi uslublari tahlil qilinadi. Maqola Amir Temurning nafaqat Markaziy Osiyoda, balki Yevropa va Yaqin Sharq bilan bo'lgan diplomatik va madaniy aloqalariga ham e'tibor qaratadi. Shuningdek, Temuriylar davrida Samarqand va Buxoro ilm-fan, madaniyat va me'morchilik markazlari sifatida rivojlanganligi ko'rsatib o'tiladi. Tadqiqotning maqsadi Temuriylar merosining jahon tarixidagi ahamiyatini ilmiy asosda yoritish va zamonaviy tarixshunoslik manbalariga tayangan holda tahlil qilishdir.

Abstract: This article is devoted to studying the legacy of Amir Timur and the Timurid era, as well as their place in world history. The research analyzes the Timurids' political and military activities, achievements in culture and science, and methods of state governance. The article also highlights Amir Timur's diplomatic and cultural relations, not only in Central Asia but also with Europe and the Middle East. Additionally, it emphasizes the development of Samarkand and Bukhara as centers of science, culture, and architecture during the Timurid period. The aim of the study is to scientifically illuminate the significance of the Timurid legacy in world history based on contemporary historiographical sources.

Аннотация: Данная статья посвящена изучению наследия Амира Темура и эпохи Тимуридов, а также их места в мировой истории. В исследовании анализируются политическая и военная деятельность тимуридов, достижения в области культуры и науки, а также методы управления государством. Статья также освещает дипломатические и культурные связи Амира Темура не только в Центральной Азии, но и с Европой и Ближним Востоком. Особое внимание уделяется развитию Самарканда и Бухары как центров науки, культуры и архитектуры в период Тимуридов. Цель



исследования — научно показать значимость наследия Тимуридов в мировой истории на основе современных исторических источников.

Kalit so'zlar: *Amir Temur, Sohibqiron, Samarqand, Temuriylar davri, davlatchilik ta'limoti, markazlashgan saltanat, ilm-fan va madaniyat, harbiy yurishlar, adolat, tafakkur, qilich, imon, kitob.*

Jahon tarixida ayrim shaxslar borki, ularning faoliyati nafaqat o'z davrini, balki keyingi asrlarning siyosiy va madaniy taraqqiyotini ham belgilab beradi. Amir Temur ana shunday buyuk tarixiy shaxslardan biri bo'lib, uning barpo etgan davlati va boy merosi bugungi kunda ham tarixchilar tomonidan katta qiziqish bilan o'rganilmoqda. Amir Temur nomi jahon tarixida buyuk sarkarda, mohir davlat arbobi va yirik siyosiy yetakchi sifatida tilga olinadi. U qisqa vaqt ichida ulkan saltanat barpo etib, Markaziy Osiyoning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida muhim o'zgarishlar yuz berishiga sabab bo'ldi. Amir Temur tomonidan asos solingan markazlashgan davlat o'z davrida keng hududlarni qamrab olgan bo'lib, unda mustahkam boshqaruv tizimi shakllantirildi. U harbiy yurishlari orqali saltanat hududlarini kengaytirish bilan birga, mamlakat ichki barqarorligini ta'minlashga ham katta e'tibor qaratgan. Shuningdek, Amir Temur ilm-fan, madaniyat va bunyodkorlik ishlarini qo'llab-quvvatlagan hukmdor sifatida ham tarixda muhim o'rin egallaydi. Uning davrida Samarqand yirik siyosiy va madaniy markazga aylangan, bu esa keyinchalik Temuriylar davrida ilm-fan va madaniyatning yanada rivojlanishiga zamin yaratgan. Shu sababli Amir Temurning faoliyati va merosi nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun jahon tarixining muhim sahifalaridan biri hisoblanadi. Uning davlat boshqaruvi tajribasi, harbiy strategiyasi va bunyodkorlik ishlari bugungi kunda ham tarixchilar tomonidan keng o'rganilmoqda.

Amir Temurning Samarqanddagi saroyida bo'lgan Ispaniya elchisi Rui Gonsales de Klavixoning esdaliklarini o'qir ekanman, Markaziy Osiyo mazkur qismining XIV asr madaniyatini — me'morchilik boyliklarini, she'riyat nafosatini, texnik va ilmiy topqirligini, ushbu madaniyatga afsonaviy jahongir Amir Temurning ta'siri va hokazolarni kashf etdim. 1995-yilda men orzuni voqelik bilan qiyoslash imkoniga ega bo'ldim. Samarqand bunday qiyoslashdan mutlaqo ziyon ko'rmadi: naqadar go'zal, undagi ajoyib hissiyotni aytmaysizmi? Qay biri bilan — uning ulug'vor o'tmishi bilanmi yoki bugungi latofati bilanmi ko'proq hayratlanishingni bilmaysan [1.4-bet]

Samarqand haqida o'qiganimizda yoki u yerga borganimizda, odamni eng hayratga soladigan narsa — bu vaqtning go'yoki to'xtab qolganidir. Klavixo kabi elchilar bundan 600 yil avval hayrat bilan yozgan o'sha muhtashamlilik bugun ham o'z kuchini yo'qotmagani haqiqatan ham mo'jiza. Odatda, tarixiy kitoblarni o'qib, keyin o'sha joyga borganingizda, xayolingizdagi tasvir bilan haqiqat to'qnash keladi va ko'pincha hafsalamiz pir bo'ladi. Lekin Samarqandda bunday emas. Muallif aytganidek, shahar bu qiyoslashdan ziyon ko'rmaydi, aksincha, odamni ikkilantirib qo'yadi: uning buyuk o'tmishiga qoyil qolishni ham, bugungi kundagi latofatiga mahliyo bo'lishni ham bilmaysiz.





Bu shahar shunchaki g'isht va koshindan iborat emas, unda qandaydir jonli ruh, o'zgacha bir hissiyot bor. Amir Temur davridagi ilmiy topqirlik va me'moriy did shunday poydevor bo'lganki, u asrlar osha o'z jozibasini yo'qotmay, har qanday zamon odamini o'ziga rom etaveradi. Temuriylar tarixi davlat muzeyining burchagida oyna ostida bir surat bor. Damashqiy qilichning surati. Uning tagida qisqagina izoh yozilgan: "Amir Temurning qilichi".

Suratda damashqiy qilichning sopi va bir qarichcha qismi aks etgan. Uni ko'rgan kishida daf'atan shunday fikr tug'iladi: bu qilich fototasvirga olinganiga qaraganda hozir ham bor ekan-da! Sohibqiron bobomizning qilichi qayerda saqlanmoqda?

Sohibqiron "Tuzuklar"ida shunday yozgan: "Qilich ko'tarib jang maydoniga otildim va shu tariqa dunyoda nom chiqardim".

Naql etilishicha, Sohibqironning padari buzrukvori Amir Tarag'ayga tushida nuroniy bir zot qilich hadya qilgan ekan. Amir qilichni qo'liga olib havoda o'ynatganida qilich yuzidan taralgan nurdan olam yorishib ketibdi. Amir Tarag'ay tushini piri Amir Kulolga aytganida u bir o'g'il tug'ilajagi va qilich bilan dunyoni fath etib, islo mu imon uchun katta ishlarni amalga oshirajagini bashorat qilibdi.

Amir Temur "Tarjimai hol"ida aytishicha, hayoti mobaynida besh narsaga qat'iy e'tiqod qo'yib, ularga doimo amal qilgan: Olloh, tafakkur, qilich, imon va kitob (bitik)dir.

Sohibqiron yoshligidan qilich kuchi ustuvor bo'lgan muhitda o'sib-ulg'aygan. Ammo islomiy ta'limotni chuqur o'zlashtirgan Amir Temur Amir Kulol va Abubakr Toyobodiy kabi piri komillarning nasihatlariga amal qilib harbiy qudratni adolatga xizmat qildirdi.

"Qaysi ishni chorayu tadbir bilan bitirishning iloji bo'lsa, unda qilich ishlatmadim", — deydi Sohibqiron. [2. 1-bet]

Odatda "qilich" deganda faqat urush va bosqinni tushunamiz, lekin bu yerda vaziyat mutlaqo boshqacha.

Menga eng yoqqan tomoni — Sohibqironning kuchi uning bilagida emas, ko'proq ongida va e'tiqodida bo'lganidir. U beshta narsaga — Olloh, tafakkur, qilich, imon va kitobga tayanib ish ko'rgan. E'tibor bersangiz, qilich bu ro'yxatda markazda tursa-da, u tafakkur va imon bilan o'ralgan. Ya'ni, u shunchaki qurol emas, balki adolatni o'rnatish vositasi bo'lgan.

Ayniqsa, uning "Qaysi ishni chorayu tadbir bilan bitirishning iloji bo'lsa, unda qilich ishlatmadim" degan gapi bugungi kun uchun ham juda katta dars. Bu uning nafaqat buyuk sarkarda, balki kuchli diplomat va donishmand bo'lganini ko'rsatadi. Qilich u uchun oxirgi chora bo'lgan, birinchi o'rinda esa doim aql va tadbir turgan.

Amir Temur tom ma'noda adolatli, qonunchilikka asoslangan davlatchilik asoslarini qurib, millati, elati, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar har bir fuqaroning hurmat-izzatini joyiga qo'ydi, insonday oliy mavjudot farovonligiga xizmat qiluvchi qonunlar majmuasini tuzdi, fuqarolarni har tomonlama himoyaladi. Uning davlatchilik merosi kuchli siyosiy konsepsiyani tashkil etadi. Amir Temur va temuriylar zamonida qisqa vaqt ichida yuz bergan inqilobiy o'zgarishlarga, temuriylar davri Renessansining yuzaga kelishiga albatta, davlatchilik ta'limoti muhim ta'sir ko'rsatgan. Haqli ravishda biz milliy davlatchilik





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



tariximizdagi eng zalvorli va kulminatsion davr — Amir Temur va uning vorislari davri deb ayta olamiz. Sohibqiron Amir Temur hech bir davlat va davr uchun eskirmaydigan mukammal davlatchilik ta'limotini yaratdi. Tajribalar asosida kamolga yetgan va pishiq asoslarga tayangan davlat boshqaruvi amalda qat'iy ijrosini topdi va jamiyatda adolat tantanasiga erishildi. Uning davlatchilik ta'limoti asrlar osha davlat boshqaruvida andoza vazifasini o'tadi.[3.6-bet]

Amir Temurning hayotiy "besh e'tiqodi" (Olloh, tafakkur, qilich, imon va kitob) uning har bir qadamini nazorat qilib turgan. E'tibor bersangiz, bu ro'yxatda kitob va tafakkur qilich bilan yonma-yon turibdi. Bu esa o'sha davrdagi Renessans (uyg'onish) poydevori qayerdan kelganini tushuntirib beradi. Jamiyat o'zining zaruriy qonuniyatlariga egadir. O'sha zaruriy Qonuniyatlar tarkib topmas ekan, jamiyatda turli tengsizliklar kelib chiqishi hamda bu bilan davlatning rivojlanishiga putur yetishi muqarrar. Shu bois ham Amir Temurning, 27 davlatni birlashtirgan Markazlashtirilgan ulkan saltanati, tabiiyki, qonunlar to'plamlari asosida yaratilgan va unga qat'iy amal qilish yo'lga qo'yilgan bo'lishi kerak edi. [4.35 -bet]

Amir Temur millati, elati yoki ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, har bir fuqaroning hurmat-izzatini va himoyasini ta'minlaydigan mukammal davlatchilik tizimini barpo etdi. Jamiyatda zaruriy qonuniyatlar bo'lmasa, tengsizlik kelib chiqishi va davlat rivoji to'xtashi muqarrar ekanini u juda yaxshi anglagan. Shu bois ham, u 27 ta davlatni birlashtirgan ulkan saltanatini qat'iy qonunlar to'plami asosida boshqargan. Uning bu ta'limoti asrlar osha davlat boshqaruvida andoza vazifasini o'tab kelmoqda va bugungi kunda ham o'zining amaliy ahamiyatini yo'qotmagan.

Temur o'ziga ma'naviy ustoz qilib Hirot yaqinidagi Toyobod qishlog'ida yashovchi Zayniddin Abubakrni tanladi. Zayniddin Abubakr tegishli pand-nasihatlarini bayon qilgach, belbog'ini yechib, uni Temurning beliga bog'laydi, o'z duppisini boshidan olib, uning boshiga kiydiradi, "Rosti va rusti", ya'ni "Haqgo'ylik va odillik" so'zlari bitilgan uzukni ham unga hadya qiladi. Keyinchalik shayx Zayniddin Abubakr sovga qilgan uzugiga o'zining ismi-sharifi va uchta uzun-uzun chiziq uydirdan. Bu muhr ko'zga tashlangan joyda ne-ne saltanat egalari xalqiga qo'shib, sohibqironiga ta'zim bajo keltirganlar [5.9-bet]

Yana bir qiziq jihati, uning Zayniddin Abubakr kabi ustozlariga bo'lgan cheksiz hurmati. Ustozining belbog'ini bog'lab, duppisini kiyishi va uzugidagi "Rosti va rusti" yozuvini o'ziga muhr qilib olishi — bu shunchaki an'ana emas, balki buyuk saltanatning ma'naviy poydevori bo'lgan. Bu muhrni ko'rganda boshqa hukmdorlarning ta'zim qilishi esa, Amir Temurning nafaqat harbiy kuchi, balki uning adolati va haqgo'yligi butun dunyoda tan olinganini ko'rsatadi. Amir Temurning madaniyat va ma'naviyat homiysi hamda rahnamosi sifatidagi faoliyatini o'rganuvchi olimlardan biri pokistonlik Ahmad Hasan Doniydir. Professor A. H. Doniy, angliyalik Hilda Xukxem singari, uzoq vaqtlardan beri Markaziy Osiyo xalqlari tarixi bilan shug'ullanib keladi. Keyingi yillarda esa u Pokistonda Amir Temur shaxsiyatini va umuman temuriylar tarixini qayta o'rganish bo'yicha birmuncha samarali faoliyat ko'rsatdi va buning natijasi o'laroq uning ingliz tilida yozilgan "Timur Legacy" ("Temur merosi") kitobi maydonga keldi. [6.13-bet]



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



Oddiy qilib aytganda, Amir Temur shunchaki yerlarni fath qilmagan, u ilm va adolatga asoslangan ulkan bir madaniy dunyoni qurgan. Uning kuchi — qilichida emas, balki o'sha qilichni qachon ishlatishni va qachon qinga solishni bilgan aqlli tafakkurida bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <httpss//.www.ziyouz.com> kutubxonasi
2. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasining 49-sonidan.: - T. 2002
3. Мамажонова Ш. Амир Темур ва Темурийлар даврида миллий давлатчиликнинг ривожланиши. - Т Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси "Фан" нашриёти , 2005
4. Амир Темур жахон тарихида - Т. Шарк нашриёт- матбаа консерни. : 1996
5. Азимов Е. Амир Темур салтанати . :- Т. Гафур Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 1996
6. Норкулов Н. Амир Темур даври манавияти. : - Т . Гафур Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 2001